

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori p.f.n. Baymetov Botir Boltaboyevich taqrizi ostida

Muratov Xusan Xolmuratovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi dotsenti

Telefon raqami: +998 99 4773984

Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-4956-1963>

E-mail: khusan.muratov@gmail.com

TALABALAR MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH, BOSHQARISH VA FAOLLASHTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta’limning tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishida talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasi muammolari, yechimlari, mustaqil ta’limni tashkil etish va boshqarishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rnii va ahamiyati, dasturiy mahsulotlarning didaktik ta’midot sifatida mustaqil ta’limda keng qo‘llanilishi va samaradorligi haqida atroflicha emperik tadqiqot natijalari asosida olingan xulosalar va mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birga mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish, mustaqil ta’lim turlarini o‘zgartirish, modernizatsiyalash va raqamlashtirish, mobillikni oshirish masalalari ham keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ta’lim, kreativ, kompozitsiya, didaktika, vizual, interaktiv, intellektual, gipermedia, interfeysi, kompetensiya, integratsiya, modernizatsiya, mobillik.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены проблемы методики организации и управления самостоятельной образовательной деятельностью студентов в области изобразительного искусства и инженерной графики высшего образования на сегодняшний день, ее решения, роль и значение современных информационно-коммуникационных технологий в организации и управлении самостоятельным образованием, результаты эмпирического исследования широкого применения и эффективности программных продуктов в качестве дидактического обеспечения в самостоятельном образовании. на основании сделанных выводов и соображений. Наряду с этим широко освещаются вопросы активизации самостоятельной образовательной деятельности, изменения, модернизации и цифровизации видов самостоятельного обучения, повышения мобильности.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, креатив, композиция, дидактика, визуальное, интерактивное, интеллектуальное, гипермедиа, интерфейс, компетентность, интеграция, модернизация, мобильность.

Abstract: this article deals with the problems, solutions, role and importance of modern information and communication technologies in the organization and management of independent educational activities of students in the field of higher education visual arts and engineering graphics education today, conclusions and reflections on the wide application and effectiveness of software products as didactic products in independent education on the basis of the results of At the same time, the issues of activating independent educational activities, changing the types of Independent Education, modernization and digitization, increasing mobility are also widely covered.

Keywords: Independent Education, creative, composition, didactics, visual, interactive, intellectual, hypermedia, interface, competence, integration, modernization, mobility.

Jahon oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim faoliyati haqidagi g‘oyalar, faol mustaqil faoliyat yurita oladigan mutaxassisning tafakkurini muvaffaqiyatlari rivojlantirish va qobiliyatlarini takomillashtirishning kreativ modul mexanizmlari ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. YUNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi

dasturlari doirasida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish, ta’lim texnologiyalarini qo’llash¹, kasbiy tayyorgarligi, mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etishga qaratilgan yirik loyihalarni amaliyatga joriy etishga qaratilgan ishlar tizimli amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, oliv ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliv ta’limni modernizatsiya qilish va ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ta’lim olish, mustaqil ishslash, mustaqil ta’limni tashkil etish, mustaqil ta’lim modelini takomillashtirish, mustaqil bilim olish faoliyatining mazmuni, metodlari, shakllari va vositalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda bo‘lajak pedagog kadrlarning kasb-mahoratini auditoriyalarda akademik o‘qish jarayoni bilan bir qatorda ularda mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish, mahoratli pedagoglar sifatida tarbiyalash birinchi galdegisi muhim vazifalardan biri sifatida bo‘lib kelmoqda. Muammoni muvafaqiyatli hal qilish uchun esa, mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasini takomillashtirish asnosida mustaqil faoliyat olib borish va ta’limda uzviylik hamda uzlucksizlik tamoyillaridan maqsadli foydalanish muhimdir. Mazkur muammoni biroz kengroq olib qaraydigan bo‘lsak, mustaqil ta’lim nafaqat oliv ta’lim talabalariga, balki uzlusiz ta’limning barcha bo‘g‘inlariga tegishli va mazkur muammo boy tarixga ega ekanligini ishonch bilan aytish mumkin.

Mamlakatimizning qator pedagog olimlari jumladan, N.N.Azizxodjayeva, R.Djurayev, B.Xodjayev, S.Azimov, T.Badalxodjayev, U.Begimkulov, O.Bobomurodovlar tadqiqotlarida oliv ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish mazmuni tadqiq qilingan; S.M.Matchanov, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov, A.R.Xodjabayev, Q.P.Husanboyeva, Z.Nishonova, T.Niyazmetova, J.Tolipova, B.R.Muqimov, S.Qulmatov, O.A.Qo‘ysinov, O.V.Akylova, L.R.Zaripov, O‘N.Sultonova, M.Quvondiqova, R.Qadirova, Sh.Hayitova, F.Sadiqova, S.Mamatqulov, Q.Sh.Bekqulovlar mustaqil ta’limning tashkiliy va metodik asoslari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi hamda xorijlik olimlar ham mustaqil ta’lim bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borishgan va tadqiqot natijalarini amaliyotda samarali qo’llashgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni², 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli “Oliv ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazmun mohiyati ham aynan bo‘lajak kadrlarni raqobatbardoshligini ta’minalash, o‘qitih sifati va samaradorligini oshirish, mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy

¹ IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 * IAU HORIZONS. https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_ vol.24.1_en_light_.pdf.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887–son. <https://lex.uz/docs/4545884>.

sohalariga munosib hissasini qo'shish, ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalarini amalaga oshirish kabi kompleks masalalarni qamrab olgan.

Yuqoridagi qarorlarda ta'lim muassasalaridagi bir qancha masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, shulardan:


– ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlarining xajmini oshirish, talabalarda individual, mustaqil ravishda bilim o'rganish, tanqidiy kreativ, va ijodiy fikrlash, jarayonni tizimli tahlil qilish, mustaqil bilim olish ko'nikmasini faollashtirish, o'quv jarayonida amaliy kompetensiyalarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladigan metodikalar, shuningdek texnologiyalarini qo'llash, o'quv jarayonida talabalarining amaliy ko'nikmasini faollashtirishga yo'naltirish, bu asosida esa o'quv jarayoniga xorijiy ta'lim standartlari asosida ilg'or zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, fan dasturlari va o'quv-uslubiy, nazariy ma'lumotlarni keng joriy qilish;

– talabalarning bilimlarini nazorat qilish tizimida zamonaviy texnologiyalarini yanada takomillashtirish va xolisligini ta'minlash, shu jumladan, talabalar bilimini baholash bilan ularning shakllarini yanada rivojlantirish kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan.

So'nggi paytlarda oliy o'quv yurtlari ta'lim jarayonini tashkil qilishda auditoriyada beriladigan yuklamalar qisqartirilib, mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish rejalashtirilgan. Bunda talabalar mustaqil ta'limining ahamiyatini yanada oshirish yo'lidan borilmoxda. "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim olishida, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarini kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarini joriy etish, o'quv jarayonida amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish talabalar bilimini baholash tizimining texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, jumladan, baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish, fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish"³ uning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sun Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda mustaqil ishlarga ajratiladigan soatlar miqdori oshirilib, uning ulushi bakalavriat ta'limida umumiy o'quv yuklamasining 50-60 foizini, magistratura mutaxassisligida esa 60-70 foizini tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Xususan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining 60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishida o'quv auditoriya soatlari 1870 soatga qisqarib, mustaqil ta'lim soatlari 16,3% ga ortgan (1-rasm).

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sun Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-sun. <https://lex.uz/docs/4545884>.



1-rasm. 60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'naliшining o'quv rejasidagi soatlar miqdorining o'quv yillari kesimida o'zgarishi

Belgilangan mazkur tartib oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Kredit-modul tizimi asosida talabalarning mustaqil ta'lim olishi modul dasturi asosida o'quv-uslubiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, ma'lum tuchunchalar, ko'nikma hamda malakalar egallashi uchun belgilangan aniq vaqt me'yorida nazariy va amaliy topshiriqlarni individual tarzda talabalar tomonidan bajarilishidir.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo kun sayin raqamlashib barcha jabhalarda yangicha vositalar yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Xususan, ta'lim ham, ta'lim berish metodikasi ham bugun tubdan mohiyatini, shaklini o'zgartirgan. Shu bois biz pedagoglar ham ta'limni zamonga va kelajak avlodga mos ravishda modernizatsiyalash va raqamlashtirishimiz zarur.

Hozirgi vaqtida respublikamizda oliy ta'lim tizimini rivojlanishining har bir bosqichida mustaqil ta'limdan foydalanish nazariyasi va amaliyotini faollashtirish oliy ta'lim muassasalarining o'quv ishlarini takomillashtirish aspektida amalga oshirilmoqda. Bu hodisani nazariy tushunish ta'lim jarayonini takomillashtirish nazariyalarini ishlab chiqish bilan mos ravishda yuz berdi. Tadqiqotimizda o'quv faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan, talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq nazariy tuchunchalarni ishlab chiqishda bir qancha bosqichlarni belgilab oldik (2-rasm).

Mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish bosqichlari



2-rasm. Mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish bsqichlari

Ta’lim jarayonini faollashtirish uchun bugungi kunda an’anaviy o‘qitish usullaridan, noan’anaviy o‘qitish usullari ya’ni dars jarayonida yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan faol foydalanish, o‘qitishning yangi usullari joriy qilinmoqda.

Ta’lim jarayonining samaradorligi bilan bog‘liq navbatdagi nazariy tuchuncha ta’lim jarayonini optimallashtirishdir. Optimallashtirish nazariyasi, yangi muammolarni shakllantirmaydi, ta’limda duch keladigan muammolarni hal qilishning eng yaxshi yo‘llarini topishga o‘rgatadi. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda biz ta’lim jarayonini optimallashtirishning quyidagi yo‘llarini taklif etamiz:

- ta’lim jarayonini maqbul rejalshtirish hamda undagi tizimning xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ta’lim mazmunining optimal versiyasini tanlash;
- Mustaqil ishslash uchun mo‘ljallangan vazifalarga ajratilgan vaqt ichida eng muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beruvchi usullar va o‘qitish vositalarini tanlash;
- belgilangan vaqt ichida vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun maqbul sharoit yaratish;
- ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish va o‘zini-o‘zi boshqarishning oqilona uyg‘unligi (o‘qitishni optimallashtirish);
- o‘quv-bilish natijalari va sarflangan vaqtini optimallik mezonlari asosida tahlil qilish.

Ta’limni modernizatsiyalash strategiyasi ta’limning quyidagi muhim maqsadlarini ko‘rib chiqadi: talabalarga ko‘proq mustaqillik berish va o‘z ustilarida ishslash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlikda ishslash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, o‘zgalarning fikrlarini to‘g‘ri qabul qilish kabilalar.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish - Zamonaviy dunyoda ta’limning dolzarb yo‘nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyot uchun kompetent kadrlar tayyorlash uchun pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalaydigan axborotlashtirish sanaladi. Ochiq ta’lim resurslari va ommaviy ochiq onlayn kurslarning qulayligi axborot texnologiyalarining ta’limiy salohiyatini boyitishga xizmat qilmoqda. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish sharoitida bo‘lajak mutaxassislar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda, o‘z navbatida, pedagogik tashxisni takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beradigan metodikalarni tatbiq qilish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

Shu maqsadda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoniga “**Moodle elektron ta’lim tizimi**”ni joriy etilishi, “**HEMIS**” axborot tizimi, **t-kontrakt.edu.uz** tizimi, **stipendiya.edu.uz** tizimi, **prof-talim.edu.uz** tizimi, onlaysurʼi kurslarni tashkillashtirilishi, aralash (blended) kurslarni tatbiq etilishi, ochiq resursli (MOOC - Massive Open Online Course) kurslarni faoliyat olib borishi mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni ta’lim sohasini rivojlantirayotganligiga yaqqol misoldir.

Bundan tashqari oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘quv varaqasi, guruh jurnali, reyting daftarchasi, akademik ma’lumotnomasi, dars jadvali, davomat va o‘zlashtirishga oid ma’lumotlar **raqamlashtirildi**. Shuningdek, **QR kodli to‘lov-shartnomalar va diplomlarni elektron ko‘rinishda** taqdim etish yo‘lga qo‘yildi.

Talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni bir qancha turlarga ajratish mumkin (3-rasm). Nihoyat pedagogika o‘quv yurtlari talabalarining mustaqil bilim olishlari - bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini har tomonlama va to‘la rivojlantirish masalasini hal etishning zarur shartidir. Oliy ta’lim tizimida mobil va raqamli texnologiyalarning tobora keng qo‘llanilishini e’tiborga olgan holda, talabalar mustaqil ta’limini faollashtirish uchun elektron shakldagi mustaqil ta’limni bajarish turlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda talabalar elektron shakldagi quyidagi mustaqil ish turlarini bajarishi mumkin bo‘ladi:

Link – internet tarmog‘ini ochib, unda mavjud bo‘lgan videolar yoki matnli ma’lumotlarni aniq belgilab olingan hajm asosida izohlash;

Chart – diagramma, jadvallar va sxemalarni belgilangan hajmda tizimli tahlil qilish;

Q/A – masofaviy ta’lim platformasi yoki mobil ilovalarda ta’lim beruvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish;

SWOT – fan bo‘yicha biror tuchunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi;


Report – laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha hisobotlarni masofaviy ta’lim platformasiga kiritish;

Interview – muammoni hal qilish bo‘yicha suhbatlar tashkil etish hamda ularni masofaviy ta’lim platformasiga joylash;

Google Apps – Google Classroom platformasi bilan hamkorlikda matnlar, slaydlar, jadvallar ko‘rinishidagi topshiriqni bajarish;

Dayjest – belgilangan mavzu asosida internet saytlari jamlanmasini keltirish, ularning qisqacha izohini yoritish hamda kartotekalar tuzish.


TALABALARLING MUSTAQIL TA'LIMI TURLARI



3- rasm. Talabalar mustaqil ta'limi turlari

Bundan tashqari o'qituvchi fanning xususiyatidan kelib chiqib, talabalarga turli kompyuter o'quv-dasturlari (iSpring, AutoPlay, Crossword, CorelDRAW, PowerPoint, Excel,) yordamida elektron tarzda bajariladigan Mustaqil ish topshiriqlarini ham berishi mumkin.

60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'nalishi talabalariga mustaqil ta'lif uchun foydalanishga Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanidan (Tasviriy san'at yo'nalishining barcha fanlari integratsiyasi asosida) "Tasviriy san'at (mustaqil ta'lif uchun)" nomli interaktiv elektron qo'llanmasi yaratilgan va amaliyotda joriy etilgan (universitet serverida <https://fineart.cspu.uz/2024/4/index.html>, google playda mobil ilova sifatida: <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.uzmobdev.art&hl=ru&gl=US>) (4-rasm).



4-rasm. Elektron qo'llanma bosh menyusi ko'rinishi.

Oddiy o'quv qo'llanmalardan elektron qo'llanmaning afzallik tomonlaridan biri u "intellektual" kuchga ega bo'lishi bilan bir qatorda kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida va joyida taqdim etish imkoniyatlari bilan farqlanadi. Elektron qo'llanma ma'lum bir predmet bo'yicha hamma tegishli o'quv materiallarini o'zida ifoda etgan bo'lishi kerak. Uning intellektual darajada bo'lishi esa o'z navbatida, oddiy qo'llanmaga nisbatan bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Masalan, ma'lumotlarni tez izlab topish, mavzularni o'zlashtirish darajasini multimedia elementlari yordamida amalga oshirish va hokazo.

Zamonaviy elektron qo'llanmalardan biri bo'lgan elektron qo'llanma multimediali mahsulot bo'lib, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni bajarishda o'qitishni samarali tashkil etish va tinglovchilarining ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday qo'llanmalardan uzlusiz o'qitish rejimida foydalanish tinglovchilar bilimi sifatini oshirishga yordam beradi.

Elektron qo'llanma yaratilyotganda kursning ajratilgan qismi amaliy (mashqlar) va nazorat (test savollari) mashq'uloti, kursning katta bo'limi esa testli mashq'ulot va sinov bilan tugashi lozim. Elektron qo'llanmadan o'quv jarayonida foydalanilganda quyidagi afzallikkarga ega bo'linadi:

– tanlangan fan yoki kurs bo'yicha bayon etilayotgan axborotlar to'plami yaxshi strukturaga ega bo'lib, tugallangan fragmentlarni tasvirlaydi;

– o'quv kursining strukturali elementi gipermatnli, ko'rgazmalilik, audio va videoizohli yoki videoko'rgazmali kalitli mavzulardan tashkil topadi va malakali o'qituvchi yoki ma'ruzachi o'qilayotgan fandagi o'z fikrlarini bildiradi hamda oddiy qo'llanmada o'zlashtirish qiyin bo'lgan fikrlarni izohlaydi;

– gipermediali grafikadan foydalanib, qo'llanmaga tegishli murakkab model va ko'rgazmalarni tuchunarli hamda sodda shaklda tasvirlash imkoniyatidan foydalanadi;

– elektron qo'llanma ko'p oynali interfeysga ega bo'lib, har bir oynada o'zaro bog'langan axborotlar joylashtiriladi;

– qo'llanmada matnli qism ko'p sonli kesishgan gipermatnli bog'lanishga ega bo'lib, zarur axborotni izlash vaqtini qisqartiradi va qo'shimcha videoaxborot yoki animatsiyali kliplardan kursning matnli qismlarini bayon etish mushkul bo'lgan bo'limlarini ifodalashda to'liq foydalaniladi;

– elektron qo'llanmada foydalanuvchi tomonidan amallarning to'g'ri bajarilishi, yordam olish jarayoni ovozli signallardan, axborotning boshqa ko'rinishlari esa multimediali vositalarning imkoniyatlaridan foydalanadi;

– axborotning sifati, ishonchliligi va uning strukturasiga talab oshadi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinish turibdiki, hozirgi zamonaviy pedagogikada elektron qo'llanmalardan foydalanish asosiy masala bo'lib qolmoqda. Elektron qo'llanma va ensiklopediyaning jahon ta'lif standartiga to'liq javob bera olishi tinglovchilar bilim sifatini oshirishdagi ahamiyati muhim ekanligi bayon etiladi. Bugungi kunda amaliy jihatdan elektron qo'llanma va ensiklopediyaga tegishli ishlar juda kam ishlab chiqilgan.

Interaktiv elektron-o'quv qo'llanma talabaga zamon talablari asosida atroflicha interaktiv ta'lif berish, fanning nazariy jihatlarini vizual, audio, animatsiya, simulyatsiya, video, o'yinli va mustahkamlovchi ta'limi dasturlar asosida mustaqil bilim berish uchun zarur. Interaktiv elektron qo'llanmalar talabalar uchun istalgan joyda qulay foydalanish, bilimlarni oshirish, mustahkamlash, bilimini tekshirish, ustoz bilan bog'lanish imkoniyatini taqdim etadi.

Mazkur interaktiv elektron-o'quv qo'llanma professor-o'qituvchi uchun har bir talaba bilan individual ishlash imkoniyatini yaratib beradi. O'qituvchi mustaqil ta'lifni tashkil etadi, boshqaradi va nazorat qiladi. Talabaning har bir harakati natijasi o'qituvchining elektron manziliga avtomatik qayd qilib boriladi. Bu orqali talabaning mustaqil ta'lif olishi kafolatlanadi, nazorat qilinadi, mustaqil ta'lif tizimi to'g'ri tashkil etiladi, shaffof baholanadi va talaba rag'batlantiriladi.

Dinamik ta'minotni shakllantirish ishlari har bir talabaning ongida bajarilishi kerak va uni boshqa hech kim bajara olmaydi. Lekin bu ish o'ta murakkab va talabandan ko'p energiya talab qiladi. Shuning uchun uning muvaffaqiyati malakali o'qituvchining yordamini talab qiladi.

Didaktik ta'minotning mazmuni va tuzilishida talabalarning bilish mustaqilligini, didaktik va o'quv maqsadlarni mustaqil hal etish zaruratini shakllantirishga qaratilgan murakkab vazifalar tizimidan iboratdir.

Mustaqil ta'lif jarayonida mustaqil ish ta'lif vositasi va o'qitish shakli hamda ilmiy bilim sifatida didaktik ziddiyat shakllari va vositalari qo'yilgan.

Bu ikki tomonning to'liq birligiga erishish har bir mustaqil ta'lif aniq bilish vazifasini shakllantiradigan bo'lsa, u holda o'rganish asosan o'zining rivojlantiruvchi va o'rgatish vazifalarini yo'qtadi.

Vazifani hal etish o'qituvchiga talabaning o'quv jarayonini maqsadga muvofiq boshqarish va kerakli nazoratni amalga oshirish imkonini beradi.

Mustaqil ta'lifni biz shunday ta'lif vositasi deb hisoblaymiz:

- didaktik tizimga mos keladi;
- o'qituvchining bilimdan bilimgacha bo'lgan harakatining har bir bosqichida bilim vazifalarining muayyan auditoriyasini hal qilish uchun zarur bilim, kasbiy kompetensiyasi darajasini shakllantiradi va shunga mos ravishda intelektual salohiyatining past darajasidan yuqori darajalariga ko'tariladi;
- talabalarning ta'lif olish mustaqilligi va kasbiy faoliyatiga psixologik munosabatni rivojlantiradi;
- talabalar mustaqil ta'lifni individual tarzda o'zлari tomonidan amalga oshiriladi;

Ta'lif jarayonida mustaqil ta'lif olishni faollashtirish vositasi sifatida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Mustaqil ta'lif olishni o'z shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy bilimlarni ongli o'zlashtirish, chuqurlashtirish va takomillashtirish uchun yordam beradi;


2. Berilgan mavzuni ijodiy yondashib o‘zlashtirishning mavjud ko‘nikmalari takomillashtiriladi va yangilari ishlab chiqiladi;

3. Talabaning mustaqil ravishdagi harakatlari ma’lim bir fanning ilmiy bilish usullarini anglaydi, mustaqil fikrlashning zarur ko‘nikmalarini egallaydi.

OTM talabalarining bilim darajasi fanni o‘rganishni va uni ijodiy rivojlantirish yo‘llarini birlashtirishi kerak. Talaba uchun bilimlarni boshlang‘ich ma’lumotidan chuqurroq mohiyatigacha o‘zlashtirish yo‘li ijodiy izlanish, bilimlarning real muammolar, fan, ishlab chiqarish muammolari yechimi bilan bog‘liqligi bilan ajralib turadi.

Har qanday shaxs hislati kabi bilish mustaqilligi ham xilma-xil ruhiy jarayonlar asosida shakllanadi. Turli xil o‘quv-amaliy vazifalarni hal etishda o‘zini namoyon etish, albatta, tanqidiy fikrlash, bilim va faoliyat munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ba’zi hollarda talaba ayrim mustaqil ishlarni o‘zlashtirib, ma’lim bir yangi bilimlarni qo‘lga kiritadi, bu esa o‘z navbatida bilish jarayonining o‘ziga nisbatan izlanish mahsuli sifatida harakterlanadi. Boshqalarda esa, muammoni hal qilish usuli sifatida olingan yangi bilimlarga nisbatan harakat qiladigan murakkabroq masalani o‘rganish jarayonida talaba tomonidan qo‘llaniladigan bilimlardir. Bilim darajasida, ayrim sharoitda talabalar tomonidan avval o‘xshash yoki qisman o‘zgargan sharoitda, so‘ngra butunlay yangi bo‘lgan boshqa muammolarni hal qilishga muvaffaqiyatl o‘tiladi.

Shulardan ko‘rinib turibdiki, talabaning mustaqil ishlash jarayonining turli bosqichlarida tanqidiy fikrlash, bilish va o‘quv faoliyati asta-sekin o‘zaro integratsiyaga va o‘zaro bir-birini taqozo etib, ularning rivojlanish jarayonida nisbiy birlikka erishadi. Talabalar tomonidan olingan bilimlarni bilish vositasi sifatida har qanday mustaqil qo‘llash mumkin bo‘lgan, turli xil aniq hodisalarni tushuntirish usuli, o‘rganilgan faoliyat usullarini turli vaziyatlarga o‘tkazish allaqachon tanqidiy fikrlash jarayonini nazarda tutadi (5-rasm).



5-rasm. Mustaqil ta’limni faollashtirishning didaktik va metodik turlari

Bu holda talabalarning faolligi past bo‘lib, bilim mustaqilligi faqat eng past darajada - qayta ishlab mustaqillik darajasida shakllanishi mumkin. Ilgari egallangan bilimlarni tanlab faollashtirish zarur bo‘lgan vaziyatlarda tafakkur va bilimlarning o‘zaro bog‘liqlik darjasini yuqori bo‘ladi. Bunday hollarda barcha mayjud bilimlardan kelib chiqib, talaba aynan shu bilimlarni, shuningdek, bir qator individual yuksak rivojlangan, lekin u tomonidan amalga oshiriladigan tor ko‘nikmalarni masalalar echish jarayonida amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligi va yo‘l-yo‘riqlariga muvofiq amalga oshiradi. Haqiqatdan ham, talaba topshiriq shart-sharoitlarini tahlil qiladi, muayyan bilimning shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib muammoni hal etish usuli sifatida ochib beradi, bu esa uning faolligini yuqori darajada ta’minalashga xizmat qiladi.

Yakka tartibdagi samarali mustaqil mashg‘ulotlar uchun talabalardan quyidagilar talab etiladi:

- mustaqil ish uchun o‘quv-metodik, ilmiy, ma’lumotnomha xarakteridagi adabiyotlarning mavjudligi;
- ko‘rgazmali qurollar, interfaol ishlanmalar va illustrativ materialning (talabalar ishlaridan namunalar) mavjudligi;
- o‘qituvchining maslahatchilik-metodik yo‘naltiruvchi rolini kuchaytirish;
- talabalar intizomliligining yetarli darajada ekani;
- ish jarayonida talabalar va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati.

Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi elektron qo‘llanmasi orqali talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish omillaridan biri hisoblanadi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, elektron qo‘llanma vizuallik dinamik asoslarga qurilgan. Bu esa bugungi yoshlar uchun yanada qiziqarli va zamonga mosdir. Talaba fanni mustaqil o‘zlashtirish jarayonida sun’iy intellekt tomonidan tasviriy san’atning nazariy tomonlari so‘zlab beriladi, turli interaktiv o‘yinli texnologiyalar orqali bilimlari sinaladi hamda talabaga yangi bilimlar beradi. Mavzu yuzasidan videodars, amaliy mashg‘ulot bo‘yicha mahorat darslari namoyish etiladi.

Elektron qo‘llanma o‘qituvchi va talabalarda ma’lum malakalarni shakllantirishda vaqtini qisqartiradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o‘quvchilarning ishlash sur’ati jadallahadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishning talab qilinishi natijasida talaba ta’lim subyektiga aylanadi; talabalar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo‘ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta’minalash imkoniyati hosil bo‘ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o‘yin xarakterini oladi va bu bilan o‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi.

Elektron ta’lim vositalarini yaratish - zamonaviy o‘quv-metodik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Elektron ta’lim vositalari ixtisoslashtirilgan elektron ma’lumotlar bazasi (darsliklar, ensiklopediyalar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar), ixtisoslashtirilgan dasturlar esa didaktik vositalardan tarkib topadi. Ular ta’lim muhitida multimedia texnologiyalari ta’sirida paydo bo‘ldi va jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur ta’lim vositalarining afzalligi, nazarimizda, birinchidan, mobilli; ikkinchidan, zamonaviy ilmiy bilimlar rivojlanishi va insonning axborotga bo‘lgan ehtiyoji darajasiga mos ko‘lamda taraqqiy topgani; uchinchidan, kompyuter tarmoqlarining shiddat bilan kengayib borishi natijasida foydalanuvchilar sonining ham keskin o‘sib borishida ifodalanadi.

Bugungi zamonaviy ta’limda elektron ta’lim vositalariga qiziqish va e’tibor dunyo miqyosida oshib borayotganini ko‘rib turibmiz. Hozirgi kunda bunday qo‘llanmalarni yaratish tor doiradagi xususiy urinishlar chegarasidan chiqdi va ularni ta’lim jarayoniga faol tatbiq etishga harakat qilinmoqda, bu borada muayyan tajriba ham to‘plandi. Zamonaviy multimedia texnologiyalaridan qalamtasvir va rangtasvirga o‘qitish sohasida foydalanishning quyidagi ko‘rinishlarini e’tirof qilishimiz mumkin:

– qalamtasvir va rangtasvir texnologiyalari va tasviriy savodxonlik asoslari bo‘yicha ma’ruzalarni elektron mahsulotlar tarzida boyitish. Fan borasida umumiylashtirish beradigan mahorat darslarini tashkil qilib, talabalarning mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida foydalanish;

– qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san’at o‘qitish metodikasi fanlari bo‘yicha didaktik, uslubiy materiallar va qo‘sishchalar ma’lumotlardan tarkib topgan elektron-o‘quv qo‘llanmasini yaratish, shuningdek, mustaqil o‘qish-o‘rganishda keng ko‘lamda foydalanish, shaxsiy bilimlarni nazorat qilishda yordam beradigan dasturiy ta’minotni ishlab chiqish.

Bunday elektron-o‘quv qo‘llanmasi talabalarning mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘tkazishida zarur bo‘ladigan didaktik, uslubiy, ilmiy ma’lumotlar asosida tuziladi. U ta’lim oluvchilarga mavzularni mustaqil o‘zlashtirish, shuningdek, o‘qituvchi rahbarligida o‘tkaziladigan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda, o‘quv fanlari bo‘yicha qo‘sishchalar axborot va ma’lumotlar olishda qo‘l keladi. Qolaversa, elektron dastur talabalarga o‘quv fanlari bo‘yicha bilimi shaxsan nazorat qilib va baholab borish, o‘qituvchilarga esa o‘quvchilarning joriy va yakuniy o‘zlashtirishini xolis kuzatish, shu orqali ta’lim berish sifatini yanada oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa zamonaviy kompyuter texnologiyalarining an’anaviy ta’lim berish shakl va vositalari, o‘quv-metodik ta’minot usullariga nisbatan ustuvor jihatlarga ega ekanini yanada yaqqol namoyon qiladi.

Foydalaniqan adabiyotlar ro‘yxati:

1. IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 * IAU HORIZONS. https://iau-iu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light.pdf.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sون Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son. <https://lex.uz/docs/4545884>
3. Botirbekova G.A. Elektron darsliklar innovatsion texnologiyalarning turi sifatida. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 10, 2021.
4. D.S. To‘xtasinova, V.S. Xamidov. Elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish va rasmiylashtirish uchun uslubiy qo‘llanma.
5. Д.С.Тўхтасинова, В.С.Хамидов. Электрон ўкув адабиётларини яратиш ва расмийлаштириш. Тиббий таълим муассасалари педагоглари учун услубий қўлланма.
6. 8. Xolmuratovich, M. X. (2020) Muratov, Kh.Kh. Implementation of independent educational activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - United Kingdom, 2019. Issue: 7(12). – P. 25-28 (Scientific Journal Impact Factor. 2,51).
7. Muratov X.X. Umumy o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik fanini o‘qitishning didaktik imkoniyatlari // Maktab va hayot. – Toshkent, 2020. – №6. – B.8–11. (13.00.00. №4).
8. Muratov X.X. Elektron drsliklar – talabalar mustaqil ta’lim olishlarining muhim omili // Муғаллим ҳәм үзлуксиз билимленидириў. – Nukus, 2021. – №3. – B.19–22. (13.00.00. №20).
9. Muratov X.X. Mustaqil ta’limni tashkil etish va boshqarishda elektron ta’lim resurslari hamda multimediali o‘qitish vositalaridan foydalanishning dolzarbligi // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2021. – №5. – B.92–96. (13.00.00. №17).
10. Муратов Х.Х. Ўкув жараёнида мустақил таълимни ташкил этиш ва бошқаришнинг долзарблиги // Муғаллим ҳәм үзлуксиз билимленидириў. – Нукус, 2021. №3. – B.61–65. (13.00.00. №20).
11. Muratov, Kh.Kh. Achieving educational efficiency through organizing, managing and supervising independent education of fine arts. Current research journal of pedagogics. – USA, 2023. – Issue: 5(4). – P. 20-27 (Scientific Journal Impact Factor. 7.266).
12. Muratov X.X. Tasviriy san’at fanlaridan mustaqil ta’limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish orqali ta’lim samaradorligiga erishish // Kasb–hunar ta’limi. – Toshkent, – 2023. – №3. –B. 225–231. (13.00.00. №19).
13. www.lib.csipi.uz
14. <https://fineart.csipu.uz/2024/4/index.html>.
15. <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.uzmobdev.art&hl=ru&gl=US>